



ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH



**XOLIQOV MUHRIDDIN
MARDIQULOVICH,**

*doktorant, Navoiy davlat
pedagogika instituti.*

O'zbekiston, Navoiy

**NASIROVA SHOIRA
NARMURADOVNA,**

dotsent, Texnika fanlari

doktori (DSc), Navoiy

davlat pedagogika instituti.

O'zbekiston, Navoiy

[https://doi.org/10.47689/STARS.](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp216-218)

[university-pp216-218](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp216-218)

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning reflektiv ko'nikmalarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida rivojlantirish to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektron, resurs, ta'lim, reflektiv, texnologiya, kompyuter, jarayon, dastur, vosita.

Jahon miqyosida jamiyat rivojining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning reflektiv ko'nikmalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar shaxsiy tajribasini boyitishiga erishish muhim o'rin egallamoqda.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborotlashtirish darajasini oshirishda axborot texnologiyalari, apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlari asosida elektron axborot resurslarining bilimlar bazasini shakllantirishda milliy kontentni yaratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, darslarda ijodkorligini, ilmiy yechimlarni izlashga qodir, mustaqil fikrlay oladigan, o'z nuqtayi nazarini bayon qiladigan, individual yondashuv orqali didaktik ta'minot vositasida muhim xulosalar chiqara oladigan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

O'quvchilarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini modellashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatlari hamda o'quvchilarning shaxsiy sifatlarining takomillashuvini

ta'minlash uchun imkoniyat yaratuvchi vaziyatlarni vujudga keltirish zaruratlarini ham inobatga olish zarur.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli ta'lim konsepsiyasiga tayangan holda "Informatika fanidan amaliy ishlarni bajarish uchun" va "Python dasturlash tilida masalalar yechish" nomli uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Tadqiqotlar davomida "O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi elektron uslubiy dastur" ishlab chiqildi. Ushbu multimediali ilova tematik masalalar, krossvodlar, amaliy ishlar va mashq qilish uchun bir qancha vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun materiallar keltirilgan.



Informatika axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish va mantiqiy fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlash, ular yordamida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, tafakkuri, diqqati, xotirasi hamda axborot texnologiyalari sohasidagi tasavvurlarini rivojlantiriladi.

Bu dastur maktab o'quvchilarining shaxsiy erkinlik xususiyatlari, mezonlari va rivojlanish darajasini aniqlashga ko'mak berdi. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining elektron ta'lim muhitida refleksiv ko'nikmalari rivojlantirildi.

Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari fanidan refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy subyektlari – o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga oid yangi informatsiya intensiv o'sish sharoitida o'rganildi hamda o'quvchining o'qish jarayonidagi faolligini oshirish muammolari yangi pedagogik texnologiyalar va axborotni qayta ishlashga mo'ljallangan zamonaviy vositalar imkoniyatlari tutashgan holda tahlil qilinib, yangi yondashuv va didaktik ishlanmalar yaratildi.

Olib borilayotgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elektron ta'lim muhitida o'quvchilarining refleksiv ko'nikmalarini shakllantirishning tashkiliy tuzil-

masi, o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari, nazariy jihatdan asoslangan ilmiy takliflar, tavsiyalar va taklif etilgan didaktik ishlanmalar, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil izlanishga, yangi materialni o'rganish va mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratuvchi dasturiy-didaktik majmualardan foydalanish uslubiyatini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining shaxsiy erkinligining samarali rivojlanishini ta'minlaydigan dasturiy va pedagogik vositalar tizimi yaratildi va ushbu tizimni kompyuterda o'rganish sharoitida eksperimental ravishda sinab ko'rildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta'lim muassasalarida elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish, o'quvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo'lib, ularda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining didaktik ta'minotini ishlab chiqish va joriy etishga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa xalq ta'lim muassasalari o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish masalasini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

Ta'lim bugungi kunda insonparvarlik pedagogikasi an'analarini, xususan, erkin tarbiyani anglash davri bo'lib, unda kompyuterli ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish g'oyalarini tizimli amalga oshirish darajasiga yetkazishi mumkin bo'lgan tadqiqot nuqtayi nazarining asosi hisoblanadi.

Kompyuterlashgan ta'lim jarayoni axborot-kommunikatsiya muhitining mazmuni, o'qish jarayoniga o'quv materiallarini taqdim etish yangi metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va o'quv jarayoni ishtirokchilari uchun bilish faoliyatining erkinligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N. Kompyuter dasturlari vositasida o'quvchilarning bilim egallashga qiziqishlarini rivojlantirish "Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio" Ilmiy-metodikaliq jurnal № 5 2019 jil. Nukus – 2019, – B. 25-27.

2. Maxmudova M.A. Nasirova Sh.N., Abdullayeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, PP. 1443-1450.

3. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N., Yodgorov G.R., Kutbedinova A. Effectiveness of Using Computer Technologies In Developing Students 'Learning Ability // Psychology and Education (ISSN: 0033-3077) (2020) (<https://www.scopus.com/sourceid/50205>) USA. – PP. 619-624.

4. Maxmudova M.A. Nasirova Sh.N., Xolmurodova Z.N., Karimova N.A. Specific features of using the multimedia system in the educational process Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10.5958 / 2278-4853. 2020. 00201.3, Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882. – PP. 40-46.

Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N., Qo'ldashev L., Safarov U. Umumta'lim maktab o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun pedagogik dasturiy vosita. Агентство по интеллектуальной собственности Республики. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ. Guvohnoma № DGU 08188, 12.03.2020.